

# ВАТАН УЧУН, МИЛЛАТ УЧУН, ХАЛҚ УЧУН!

## Азиз юртдошлар, давлатимиз Мустақиллигининг 34 йиллиги муборак бўлсин!



# MUZRABOT

O'zbekiston—  
kelajagi  
buyuk  
davlat

Gazeta 1969-yil 1-iyuldan chiqqan boshlagan  
Ijtimoiy-siyosiy gazeta

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi va tuman hokimligining nashri

2025-yil 28-avgust  
Payshanba № 14-15 (4511)

Юрт тинчлиги — жамоат хавфсизлиги

## Халқимиз тамойилларига интилиб яшайлик

Тинчлик – бу инсониятга берилган энг улугъ неъматдир. Куш қанотсиз уча олмагани каби, инсон ҳам тинчликсиз бахтли яшай олмайди. Шукурким, юртимиз осмонда тинчлик қушлари парвози баланд, далаларимизда ҳосил баракаси мўл, хонадонларимизда шодлик ва кулгу янграйди.

Мамлакат тинчлиги – бу унда фақат уруш бўлмаслиги эмас, балки одамларнинг бир-бирига меҳрибон, бағрикенг ва ҳамжихат бўлиб яшашидир. Ватан тинчлиги – бу болалар қувончи, ота-оналар орзуси. Аждодларимизнинг эса қадрли ва бебаҳо меросидир.

Юрт хавфсизлиги тинчликни мустаҳкамлайдиган қалқондир. У давлатимизни ички ва ташқи хавфлардан асрайди, халқимизнинг осойишталигини таъминлайди. Ҳар бир фуқаро хавфсизлик учун ўз бурчини адо этиши, қонунларга риоя қилиши, Ватан шаънини юксак тутуши керак.

Тинчлик ва хавфсизлик бир-биридан ажралмас. Агар юртимиз тинч бўлса, биз хотиржам ишлаймиз, ўқиймиз, орзу қиламиз. Агар хавфсизлик мустаҳкам бўлса, тинчлигимиз асраб қолинади. Шунинг учун ҳар биримиз қалбимизда шундай эзгу тилакни асрашимиз лозим: “Юртим доимо тинч, осмонимиз мусаффо элимиз омон бўлсин!”

Дарҳақиқат, юрт тинчлиги халқ фаровонлиги ва давлат тараққиётининг пойдеворидир. тинчлик бўлган жойда иқтисодиёт ривожланади, таълим ва соғлиқни сақлаш тизими мустаҳкамланади, маданият юксалади. Ҳар бир фуқаро тинчликни асрашга ҳисса қўиши, ватанпарварлик ва ўзаро ҳурмат руҳида яшаши лозим.

Жамоат хавфсизлиги жамиятнинг осойишталиги ва тартиб-интизомни таъминловчи муҳим омилдир. Кўчалар, мактаблар, бозорлар ва бошқа жамоат жойларида тартибни сақлаш фақат ҳуқуқ-тартибот органларининг эмас, балки ҳар бир фуқаронинг ҳам вазифасидир. Шундай экан, доно халқимизнинг:

“Тинчлик – тараққиёт қалити!”

“Юрт тинч бўлса, эл тинч бўлади!”

“Бирдамликда куч, тинчликда барака!”

“Хавфсизлик – ҳар биримизнинг қўлимизда!”

“Жамоат хавфсизлиги – миллат шарафи!” каби тамойилларига доимо интилиб яшайлик.

Қ.МАМАТКАРИМОВ,  
шифокор.



Кўрик-танловлар

## Ҳамкасбимиз ғолиб

Мамлакатимиз мустақиллигининг 34 йиллиги муносабати билан “Ватан учун, миллат учун, халқ учун!” эзгу ғояси остида катта шодиёналар бўлиб ўтмоқда.

Хусусан, Термиз шаҳридаги “Матбуот уйи”да Ўзбекистон Журналистлар ва Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмалари вилоят бўлиmlари ҳамкорлигида “Энг улугъ, энг азиз” анъанавий республика кўрик-танловининг вилоят босқичи ўтказилди.

Танловда оммавий ахборот воситалари ходимлари, шоир ва ёзувчиларнинг ижодий ишлари кўриб чиқилди. Ғолиблар муносиб тақдирланди.

Тақдирланганлар орасида “Музработ” газетаси муҳбири, шоир Сирожиiddин Қулбобоев ҳам бор. Мавридида, ҳамкасбимизнинг келгусидаги ижодий фаолиятида зафарлар ёр бўлишига тилак билдириб қоламиз.

Газета тахририяти.

## «Бир нуруний ўн ёшга масъул»



“Нуруний” жамғармаси Музработ тумани бўлими томонидан “Бир нуруний ўн ёшга масъул” кўрик-танловининг туман босқичи бўлиб ўтди. Унда тумандаги маҳалла фуқаролар йиғинларининг кексалар маслаҳат гуруҳлари раислари, фаол нурунийлар ва жамоатчилик вакиллари қатнашдилар.

Тадбирни “Нуруний” жамғармаси туман бўлими бошлиғи Э.Собиров очди. Иштирокчилар танловнинг шартлари, хайъат аъзолари ва беллашувчи нурунийлар билан таништирилди.

Танловда куч синашадиган “Меҳригиёҳ”, “Музработ дар-

воза”, “Шаффоф” маҳалла фуқаролар йиғинларининг вакиллари – Йўлдош Абраев, Омонкул Бўтаев, Шукуралӣ Тилово-лар уч шарт бўйича ўз билим, салоҳият, малака ва тажрибаларини синовдан ўтказдилар. Натижалар бўйича ўринлар аниқланди. Шундай қилиб, танловда 3-ўринни Омонкул Бўтаев, 2-ўринни Йўлдош Абраев, 1-ўринни (вилоят босқичига) йўлланма билан) Шукуралӣ Тиловов эгалладилар. Ғолиблар диплом ва пул мукофоти ваучерлари билан танштирилдилар.

А.ЙҮЛДОШЕВ.

1 сентябрь — Мустақиллик куни

## Музработ тумани Ҳокими Абдулла Абдумўминович Маматқуловнинг Мустақиллик байрами тантанасидаги табрик сўзи



Ассалому алайкум, азиз юртдошлар ва тумандошлар! Қадрли тadbир иштирокчилари!

Авваламбор, Сизларни ва Сиз орқали барча туманимиз ахлини энг улугъ, энг азиз – айёмимиз “Ватан учун, миллат учун, халқ учун!” деган бош ғояни ўзида муҳассам этган Мустақиллигимизнинг 34 йиллиги байрами билан чин қалбимдан самимий муборакбод этаман!

Бугун мамлакатимизда муҳтарам Президентимиз раҳбарлигида амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотлар Музработ туманида ҳам ўз самарасини бермоқда. Аҳоли бандлигини таъминлаш, ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш, халқ ҳўжалиги ва қишлоқ ҳўжалигида маҳсулотларни етиштириш ҳажмларини ошириш борасида ҳам бир қатор ижобий натижаларга эришилди.

Туманимиз жорий йилда катта ютуқларни қўлга киритди. Хусусан, ҳудудий инвестиция дастури йўналишида тумандаги умумий қиймати 5,5 миллион долларлик “Блесс С.Р” МЧЖ томонидан “Замонавий агрологистика маркази, музлатгичли омборхона, қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотларини экспортга юклаш омборхоналарини кенгайтириш”ни ташкил этиш лойиҳалари фойдаланишга топширилиб, 250 та янги иш ўринлари яратил-

ди. Мисол учун, тумanning Ал-Ҳаким Ат-Термизий маҳалласида жойлашган “Янги шаҳар” МЧЖ томонидан умумий қиймати 4 миллион доллар бўлган шoли-дон маҳсулотларини етиштиришнинг 1-бoсқичида йирик лoйиҳa ишга тушиш арафасида турибди. Лoйиҳa тўлиқ қувватда ишга туширилиши натижасида туманда 1000 та янги иш ўринлари яратилиши белгиланган.

Тумандаги 37 та маҳалла-ларда инфратузилмани яхши-лаш юзасидан 32,4 километр ички тупроқ йўллар тошлан-ди; 28,1 километр йўлларга ас-фальт ётқизилди; 10 та маҳал-лада 11,4 километр ичимлик суви тармоғи тортилди; 28 та маҳаллада 205 километр электр тармоқлари янгилан-ди. 740 та яроқсиз темир-бе-тон устунлар алмаштирилди ва 12 та янги трансформатор ўрнатилди.

Ирригация тизимини ях-шилаш мақсадида туманимиз-да 9 та оғир тоифадаги ма-жарасида умумий узунлиги 26,2 километр оқова сув ариқ-лари бетонланди, 7 та суго-риш қудуқлари қазилди.

2025 йилда тумanning иж-тимоий соҳаларида, жумладан, мактаб ва мактабгача таълим йўналишида ҳам бир қатор ижобий ишлар амалга оши-рилди. Туманда мактабгача таълим қамровини ошириш мақсадида 500 ўринли 20 та

янги оилавий мактабгача таъ-лим ташкилотлари фойдала-нишга топширилди ҳамда йил якунига қадар қўшимча яна 200 ўринли 8 та янги оилавий но-давлат мактабгача таълим таш-килотлари ишга туширилади. Қамров даражасини 2024 йил-даги 66,6 фоиздан ҳозиргача 68,1 фоизга оширилиб, йил якунига қадар 70,6 фоизга ба-жариш кўзда тутилган.

Аҳолини уй-жой билан таъ-минлаш мақсадида Янги ҳаёт маҳалласида 30 та хонадонга мўлжалланган кўп қаватли би-нолар қурилиб фойдаланишга топширилди. Чекка ҳудудлар-да аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш учун қулай шароит-лар яратилади. Масалан, Гу-листон маҳалласидаги 48-сон

оилавий поликлиникада 1 мил-лиард 200 миллион сўм, Ма-даният маҳалласидаги 51-сон оилавий поликлиникада 1 мил-лиард 200 миллион сўм маб-лағ ҳисобига қишлоқ шифо-корлик маскани янгидан иш бошлаб, аҳолига сифатли тиб-бий хизмат кўрсатмоқда. Жо-рий йилда барча қулайликлар-га эга, замонавий типда қурилган 6 та маҳалла фуқаро-лар йиғини бинолари ҳам фойдаланишга топширилди.

2025 йилнинг шу даврига-ча эҳтиёжманд оиаларни, аёл-лар ва ёшларни, кам таъмин-ланган фуқароларни қўллаб-қувватлаш мақсадида 2 мил-лиард сўмдан ортқ маблағ ажратилиб, 3000 нафардан зиёд фуқарорларга турли хил

ёрдамлар кўрсатилди ҳамда бу ишларимизни давом этти-риш доимий диққат-эътибори-мизда бўлади.

Бундан ташқари, бошқа со-ҳаларда ҳам эришилган ҳамда амалга оширилган ишлар ва ютуқлар билан бир қаторда, узoқ йиллар давомида ўз ечи-мини қутаётган муаммолари-миз, амалга оширишимиз за-рур бўлган муҳим вазифа-ларимиз бор. Туманимиз ахли-нинг яхши яшашлари учун қулай шароитлар яратиб бе-риш юзасидан зарурий чора-ларни кўриб бoрамиз.

Шу фурсатдан фойдала-ниб, юрт тинчлиги ва тарақ-қиёти учун дуода бўлган нуру-ний отахон ва онахонларга, хусусан, туманимизнинг бар-ча соҳаларидаги ижобий ўзгаришларга ўзининг меҳна-ти ва хизмати билан муносиб ҳисса қўшиб келаётган барча корхона ва ташкилотлар раҳ-барлари ва ходимларига, тadbиркор ва фермерларга ўз мин-натдорчилигимни билдираман.

Азиз тумандошлар!

Сўзимнинг якунида яна бир бор Сизларни юртимиз Мус-тақиллигининг 34 йиллик бай-рами билан чин қалбимдан са-мимий қутлайман. Барчангиз-га сихат-саломатлик, бахту-са-одат, хонадонларингизга фай-зу-барака тилайман.

Осмонимиз мусаффо, юртимиз тинч, Мустақилли-гимиз абадий бўлсин!

## Истиқлолнинг муаззам садолари

бу ҳар бир юртдошимизнинг кўксидagi уриб турган юрак зоҳири



Ўттиз тўрт йил. Бу бир қараганда, қисқа давр бўлсада, танти халқимиз учун шонли сана. Эрк учун курашган аждодларимизнинг тантанаси.

Мамлакатимизда Ўзбек-истон Республикаси муста-қиллигининг 34 йиллиги “Ва-тан учун, миллат учун, халқ учун!” Эзгу ғояси асосида кенг нишонланмоқда. Жум-ладан, туманимизда ҳам энг улугъ, энг азиз айём моҳия-тини ўзида акс эттирган, анъанага айланиб улгурган



тadbирлар қўлам ёйди. Ма-ҳаллалар, корхона ва таш-килотлар, кўчалар ҳамда хиёбонлар ободонлаштирил-

ди. Меҳнатобод, Олмазор, Файзиобод ва Моҳият ма-ҳалла фуқаролар йиғини би-нолари янгидан қурилиб,

фойдаланишга топширилди. “Инсон қадри учун” тамойи-ти асосида туманимиздаги “Туркистон” тантаналар са-ройида 10 нафар болажон-ларнинг суннат тўйлари ўткази-б берилди.

Байрам куни кечки сал-кин тушган маҳали туман-дошларимиз Халқободдаги марказий ўйингоҳга ошиқиш-ди. Тантана дастури авва-лида бадий марказга туман Ҳокими Абдулла Абдумўми-нович Маматқулов чорланди. Ҳоким ўз нутқида турли со-ҳаларда эришилган ижобий натижалар ҳақида мисоллар келтириш асосида барча-ни айём билан самимий му-



борақбод этди. Шундан сўнг майдон узра Давлат мадҳи-яси сас сочди. Сокин ша-бадада “рақс тушаётган” байроқлар киши ғурурини тоғлантириб, ўзгача ҳислар-ла ҳўштиради.

Туман маданият бўлими, Янгиобод маданият маркази, 10- ва 21-болалар му-

сиқа ва санъат мактаблари, туркман, тожик, рус милла-тига мансуб бадий ҳавас-корларнинг санъатлари ҳамда жажжи болажонлар-нинг бадий чиқшлари дил-ларни сарафроз айлади. Термиз гарнизони ҳарбий оркестри жўрликда Ватан-ни мадҳ этди. Кураш, кара-тэ, бадий гимнастикачи спортчи ёшларимизнинг кўргазмали чиқишлари май-донни беади. Айниқса, Давлат хавфсизлик хизма-



ти Чегара қўшинлари ҳар-бийлари жанговар кўргаз-мали чиқишлари орқали юртимиз сарҳадлари ишонч-ли қўлларда эканлигини яна бир бор исбот қилишди.

Тантананинг азиз меҳмон-лари – Ички ишлар вазир-лиги ашула ва рақс ансамб-ли актриса ва хонандаси Машхура Эргашева ҳамда эстрадаимизнинг ёрқин юл-дузлари Жасур Мавлонов ва Гулиноҳ ижроларидаги та-роналар барча-барчани рақсларга чорлади.

Тинч ва осуда юртда бай-рамлар ярашади, дейдилар.

Дарҳақиқат, она Ватанимиз тинчлиги барқарор экан, байрам мушаклари-ю садо-лари тантанавор кўкка пар-возланаверади.

Энг бебаҳо неъмат – мил-лий истиқлолимизнинг ўттиз тўрт йиллигига бағишланган байрамлар мазмун-моҳияти билан ҳеч шубҳасизки, муз-работликларнинг таассурот-ларида бир умрга унутилмас лаҳзаларга бойлиги-ла сақ-ланиб қолади.

Сирожиiddин ҚҮЛБОБОВЕВ.

Суратларда: байрам тан-таналаридан лавҳалар.



## «Кафолат маблағини киритиш» институти қандай мақсадга хизмат қилади?

**Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатлари ижроси ўз вақтида таъминланиши адолат қарор топишида муҳим ўрин тутди. Ижро самарадорлигини ошириш мақсадида алоҳида тизимла – Мажбурий ижро бюроси фаолият юритмоқда.**

– Амалиётда турли сабабларга кўра ижро жараёни тўхтатилиши ҳолатлари учраб туради, – деди Сенатнинг Суд-ҳуқуқ масалалари ва коррупцияга қарши курашиш қўмитаси раиси Абдулҳаким Эшмуродов. – Бу жараёнда эса қарздорга нисбатан қўлланилган чекловлар ва тақиқлар, шу жумладан, қарздор тadbиркорлик субъекти бўлса, унинг ҳисоб-рақамига қўйилган инкассо топшириқномалар ва чекловларни олиб ташлаш назарда тутилмаган. Бу қарздorлик мажбуриятини тўлаш имкониятига эга бўлган айрим қарздorларнинг фаолиятини давом эттиришини чеклаб қўймоқда. Ижро иши юритувини тўхтатиш жараёнида чекловларни бекор қилиш учун эса ҳуқуқий асослар мавжуд эмас.

Шу сабабли, фойдасига суд қарори қабул қилинган шахсларнинг қонуний манфаатларини ҳамда суд қарорларининг сўзсиз ижросини таъминлаш мақсадида суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш жараёнига “Кафолат маб-

лағини киритиш” институтини жорий этиш зарурати юзага келди. 2025 йил 19 августда кучга кирган “Ижро иши бўйича кафолат маблағларини киритиш институти жорий этилиши муносабати билан “Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида”-ги Ўзбекистон Республикаси қонунига қўшимча ва ўзгантиришлар киритиш ҳақида”ги қонун юқорида келтирилган муаммоларни бартараф этишга қаратилган.

Эндиликда янги қонун билан қарздorга бошқа ҳуқуқлардан ташқари ижро иши бўйича кафолат маблағларини киритиш ҳуқуқи берилди. Қонун ижро иши бўйича кафолат маблағларини киритишга оид 331-модда билан тўлдирилди. Бунда, ижро иши бўйича кафолат маблағларини киритиш қарздor томонидан унга нисбатан мулкий тусдаги суд ҳужжати бўйича мажбуриятларнинг бажарилишини мажбурий ижро органининг депозит ҳисоб-варағига ушбу мажбуриятларнинг тўлиқ миқдориди ёки бажарил-

маган қисми миқдориди пул ўтказиш йўли билан таъминлашдан иборат.

Ижро иши бўйича кафолат маблағларини киритиш ижро иши юритишни тўхтатиб туриш, қарздorга ва унинг мол-мулкига нисбатан белгиланган чекловларни бекор қилиш учун асос бўлади. Ижро иши бўйича кафолат маблағларини киритиш: ижро ҳужжатини бериш учун асос бўлган суд ҳужжати устидан берилган шикоят ёки келтирилган протест суд томонидан қабул қилинганда; давлат ижрочисининг ҳаракати (қарори) устидан шикоят берилганда қўлланилади.

Мажбурий ижро органининг депозит ҳисоб-варағига ўтказилган ижро иши бўйича кафолат маблағлари ижро ишини юритишни тўхтатиб туриш учун ушбу қонунда белгиланган муддат давомида сақланади. Ижро иши бўйича кафолат маблағлари: ижро ҳужжатини бериш учун асос бўлган суд ҳужжати бекор бўлганда; ижро ҳужжати амал-дан ижро этилганда қарздorга уч кунлик муддатда қайтарилди.

Киритилган ижро иши бўйича кафолат маблағлари давлат ижрочисининг ҳаракати қонунга ҳилоф деб топилган ёки қаро-

ри бекор бўлган кундан эътиборан яна йигирма кун мобайнида мажбурий ижро органининг депозит ҳисобварағида сақланиши, агар ушбу муддат давомида ижро ҳужжатини бериш учун асос бўлган суд ҳужжати устидан шикоят берилмаса ёки протест келтирилмаса, ижро иши бўйича кафолат маблағларига ушбу модданинг олтинчи қисмида белгиланган тартибда ундирув қаратилади. Ушбу муддат давомида ижро ҳужжатини бериш учун асос бўлган суд ҳужжати устидан шикоят берилса ёки протест келтирилса, ижро иши бўйича кафолат маблағлари ижро ишини юритишни тўхтатиб туриш учун ушбу қонунда белгиланган муддат давомида сақланади.

Қонун суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ўз вақтида, сўзсиз ижро этиш механизмини янада мустаҳкамлайди. Суд қарорлари ижросини таъминлашда давлат органлари, ташкилотлар ва мансабдор шахсларнинг масъулиятини оширишга асос яратди. Қолаверса, қонун суд қарорлари ижросини таъминлаш тизимини такомиллаштириш, фуқаролар ва тadbиркорларнинг қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш, қонун устуворлигини таъминлаш ва уни янада мустаҳкамлашга хизмат қилади.

**ЎЗА МУХБИРИ**  
**Норгул АБДУРАИМОВА**  
**ёзиб олди.**

### Судлар тизимида

**Мамлакатимизда иқтисодий ислохотлар амалга оширилишининг ҳуқуқий асосларидан бири Ўзбекистон Республикасининг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонуни 2022 йил 13 апрелда қабул қилинди. Шу муносабат билан Ўзбекистон Республикасининг “Банкротлик тўғрисида”ги Қонуни ўз кучини йўқотди. “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонун билан юридик ва жисмоний шахсларнинг, шунингдек, яқка тартибдаги тadbиркорларнинг тўловга қобилиятсизлиги соҳасидаги муносабатлар тартибга солинади. Қонуннинг амал қилиши давлат муассасаларига ва бошқа нотижорат ташкилотларига нисбатан татбиқ этилмайди, бундан матлубот кооперативи ёки ижтимоий фонд шаклидаги фаолиятни амалга ошираётган юридик шахслар мустаснодир.**

Тўловга қобилиятсизлик деганда, суд томонидан эътироф этилган, қарздorнинг пул мажбуриятлари бўйича кредиторлар талабларини тўла ҳажмда қаноатлантиришга ва солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича ўз мажбуриятларини тўла ҳажмда бажаришга қарздorнинг қодир эмаслиги тушунилади. Тўловга қобилиятсизлик қачонки, унинг аломатлари бўлган тақдирда тан олинishi мумкин. Хусусан, Қонунда жисмоний шахсларнинг тўловга қобилиятсизлиги тартибидан биринчи марта назарда тутилди. Шу билан бирга, Олий суд ва қуйи судларга келиб тушган материаллар таҳлили, шунингдек, суд амалиётининг сарҳисоби бу борада ҳуқуқни қўллашда муайян муаммолар мавжудлигини кўрсатди.

2025 йил 23 июнда Олий Суд пленуми бўлиб ўтди. Унда “Иқтисодий судлар томонидан Ўзбекистон Республикасининг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги нормаларини қўллашнинг айрим масалалари ҳақида”, “Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Далиллар мақбуллигига оид жиноят-процессуал қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида” 2018 йил 24 августдаги 24-сон қарорига ўзгантириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида” ҳамда “Оила ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизими такомиллаштирилиши натижасида Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгантиришлар киритилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг айрим қарорларига ўзгантириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қарорлари қабул қилинди.

Олий суд Пленумининг қабул қилинган “Иқтисодий судлар томонидан Ўзбекис-

қонун ҳужжатларига рақамли далиллар билан ишлаш тизимини такомиллаштиришга қаратилган ўзгантириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” 2024 йил 21 ноябрдаги Қонун бу борадаги ишларни амалга оширишда муҳим ўрин тутди. Қабул қилинган Қонун билан рақамли далиллар тушунчасини, рақамли далилларни тўплаш, тақдим этиш, мустаҳкамлаш, кўздан кечириш, текшириш ва баҳолаш, уларни сақлаш, қайтариш ҳамда йўқ қилиш тартибини белгилловчи ўзгантириш ва қўшимчалар киритилди.

чиқилаётганда суд оилавий (маиший) зўравонликдан жабрланган шахснинг талабига кўра ярашиш учун муҳлат тайинламайди.

Бундан ташқари, Уй-жой кодексини норма билан тўлдирилиб, унга биноан турар жойдан фойдаланиш ҳақидаги низолар кўриб чиқилаётганда суд тарафларнинг келишувига асосан турар жой мулкдорининг ташаббусига кўра турар жойга мажбурий тартибда киритилаётган тарафни турар жой мулкдорига тегишли мутаносиб шароитларга эга бўлган бошқа турар жойга киритиш ёки

Ҳуқуқни қўловчилар томонидан қайд этилган қонунни тўғри қўллаш, бу масалада барқарор суд ва тергов амалиётини шакллантириш мақсадида амалдаги қонунчилик ҳужжатларига киритилган ўзгантиришлардан келиб чиқиб, эътиборга молик ҳолатлари юзасидан судлар учун ушбу масалаларда тегишли тушунтиришлар берилишини тақозо этди.

Шунга кўра, одил судловни амалга оширишда ҳуқуқ нормаларининг тўғри татбиқ этилишини таъминлаш, судларда ягона амалиётни шакллантириш мақсадида Олий суд Пленумининг “Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2018 йил 24 августдаги “Далиллар мақбуллигига оид жиноят-процессуал қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 24-сон қарорига ўзгантириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги Қарори қабул қилинди. Ушбу Пленум қарори келгусида суд ва тергов органлари томонидан рақамли далилларни тўғри ва қонуний тарзда қўллаш тартибини белгилаш ҳамда рақамли ва электрон маълумотлар асосида мақбул ва номақбул далиллар тушунчасини янада кенгайтириш нуктаи назаридан муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Ўз навбатида “Оила ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизими такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгантиришлар киритиш тўғрисида” 2025 йил 9 апрелдаги Қонун билан Оила кодексига қўшимча киритилди. Унга мувофиқ никоҳдан ажратиш тўғрисидаги ишлар кўриб

ижарага олинган турар жой учун ижара ҳақини тўлаш мажбуриятини мулкдорнинг зиммасига юклатиши мумкин.

Шу муносабат билан Оила ва Уй-жой кодексига киритилган янги нормаларни амалиётда қўллаш юзасидан Олий суд Пленумининг “Оила ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизими такомиллаштирилиши натижасида Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгантиришлар киритилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг айрим қарорларига ўзгантириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қарори ишлаб чиқилди. Унга биноан Олий суд Пленумининг 2011 йил 20 июлдаги “Судлар томонидан никоҳдан ажратишга оид ишлар бўйича қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида” ва 2001 йил 14 сентябрдаги “Уй-жой низолари бўйича суд амалиёти ҳақида”ги қарорларига тегишли ўзгантириш ва қўшимчалар киритилди.

Қабул қилинган қарордаги тушунтиришлар келгусида қонунчилик нормаларини тўғри ва бир хилда қўллашга хизмат қилиб, одил судловни амалга ошириш, қонуний ва адолатли қарорлар қабул қилиниши орқали хотин-қизларимиз ва мулкдорларнинг қонун билан қўриқланадиган ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишга ўзининг самарасини кўрсатиши билан бир қаторда судлар томонидан қонун нормалари бир хилда талқин қилиниши ва ягона суд амалиётини яратишга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.

**Наргиза ШАРИПОВА,**  
**Термиз туманлараро маъмурий суди судьяси.**

*Истиқлол учун курашганлар*

## ҲАЙИТБЕК ҚЎРБОШИ

**ёҳуд унинг қаҳрамонликлари ҳақида нималарни биласиз?**

Миллий истиқлолимиз насиси, энг улуг ва энг азиз байрамимиз – Мустақиллик айёми тобора яқинлашиб келаятган шу кунларда ватанимиз истиқлоли учун курашган, жонини фидо этган аждодларимизни хотирилаш, А.Қодирий бобомиз айтганларидек, «яқин мозийга қайтиб иш кўрмоқ» хайрли бўлса керак. Шунинг учун мен ҳам мавзунини яқин ўтмишдан, тарихимизда истиқлол учун кураш даври ҳисобланмиш ўтган асрнинг 20-30-йилларида танладим.

Маълумки, сўнгги йилларда мамлакатимизда мустақиллик учун кураш даври тарихи аянчагина яхши тадқиқ этилди, айниқса, Фаргона водийсидаги, Хоразмдаги истиқлол курашчиларининг тарихи кенг ёритилиб, таъбир жоиз бўлса, Халқ қаҳрамонлари халқимизга қайтарилди. Аммо Сурхон воҳаси озодлик учун курашчилари тарихининг рисоладагидек тадқиқ қилинмаган десак ҳақиқатни айтган бўламиз.

Тўғри, Иброҳимбек Қўрбоши ҳақида анчагина илмий, тарихий-бадий асарлар яратилган. Лекин Иброҳимбек фақатгина Сурхон воҳаси фарзанди эмас, балки бутун Шарқий Бухоро халқларининг миллий қаҳрамони, Ўзбекистон ва Ўрта Осиё халқлари тарихида ўзига хос ўринга эга бўлган шахс. Шу ўринда фақат воҳамиз ҳудудиди кураш олиб борган, маҳаллий қаҳрамонларимизга кам эътибор қаратилаётгани, уларнинг номлари ҳозирги авлод хотирасидан аста-секин унутилиб бораётгани кўнгилни хира қилади.

Истиқлол курашчиларининг номларига одатда “Қўрбоши” ёки совет даврида аталганидек, “босмачи” номи қўшиб айтилган. Сурхон воҳасида истиқлол учун кураш олиб борган маҳаллий қўрбошилардан бири Ҳайитбек ёки Ҳайиткал (Ҳайитбек Қўрбошининг иккинчи ном Ҳайиткал деб аталishiга сабаб эса Фарбий Бухорода яна бир Ҳайитбек исмли қўрбоши) бўлган.

Ҳайитбек Қўрбоши Денов беклиги (ҳозирги Денов, Олтинсой, Шўрчи, Сарийосиё ту-

манлари) ҳудудларида совет ҳокимияти ва қизил армия қисмларига қарши муваффақиятли кураш олиб борган. Унинг номи билан аталадиган (яна бир номи Бўрижар) жарлик бўлиб, у Олтинсой ва Денов туманлари ҳудудларида жойлашган. Мазкур жарликнинг бундай аталишига сабаб эса унинг қароргоҳи, жанглار орасида дам оладиган жойи асосан мана шу жарлик ва унинг атрофларида бўлган. Шунингдек, кекса авлод вакиллари орасида унинг қатл этилган жойида (Денов беклиги кўрғони, ҳозирда ҳам харобалари сақланиб қолган) бир кечада анжир дарахти ўсиб чиққанлиги ҳақидаги ривоятлар бор. Мазкур қўрғон бозор вази фасини ўтаган яқин ўтмишда ҳам ушбу анжир дарахти илоҳийлаштирилиб, уни зиёрат қилиб, ҳожатманд инсонлар ўз ҳожатларини тилашган.

Шунингдек, Ҳайиткал Қўрбошининг аjoyиб мерган, зўр қиличбоз, муҳир чавандоз ва ниҳоятда адолатли инсон бўлганлиги ҳақида қўллаб қи-воятлар мавжуд. Унинг адолатли, очиқ ва сайёр судлар ўтказганлиги, бирор қимсаннинг ҳуқуқи топталишига йўл қўймаганлиги ҳақидаги ҳикояларни кекса авлод вакиллари тўлқинланиб, мароқ билан ҳикоя қилишади. Ай-тишларича, отини эгарламасдан минар, отнинг устига ёки икки ёнбошига ёпишганча душмanning ўртасида пайдо бўлар, сўнгра эса қилич билан душманини қиргин қилар экан. Бу эса Ҳайитбек номининг ўзиёқ қизил аскарларда кўркув ва ваҳима уйғотар экан.

Ҳайитбек Денов беклигидагина эмас, балки бутун Бухоро амирлигидаги энг бадавлат шахслардан, Худойназар халифа (Худойназар бой бобо)нинг жиғини бўлган. Худойназар халифа бефарзанд бўлиб, кексайган чоғларида яна уйланади. Аммо бу аёли билан ҳам фарзанд кўрмайди. Агар замон тинч бўлганида унинг бор мол-дунёси мана шу жиғинга қолар эди. Аммо инқилоб ва фуқаролар уруши тоға-жианлар тақдирининг

аянчли тугашига сабаб бўлади. Ҳайитбек қизил аскарлар томонидан қўлга олиниб, қатл этилган бўлса, Худойназар халифа эса бор мол-дунёсини ташлаб, Тожикистон ҳудудида, мусофирчиликда вафот этади.

Худойназар халифанинг иккинчи аёли Жангил момо шундай хотирлар экан: –Ошхонамиз қапада бўларди. Мехмон, келим-кегим кўп бўларди. Хар кун ош пиширардик. Ошни димдиришим билан худди ғайбдан билгандек, яланғоч, эгарланмаган от устида Ҳайитбек кириб келарди.

- Чеча, бизнинг насиба тайёр бўлдимми?

- Ҳозиргина димладим. Тоғангизнинг олдига ўтинг. Сузқиб қираман.

- Эй, чеча, ортимдан қизиллар қувиб юрибди. Уларни қишлоққа доритмай, измидан қилб кетаман, насибамни қўлимга сузиб бераверинг, - деб қўш ҳовучини тутаркан. -Тағдидан, қирмочли жойидан бўлсин, чеча.

Қозоннинг тағидан, қирмочли, иссиқ жойидан бир қапгир ошни унинг тутиб турган қўшҳовучига солардим. - Тоғамни сўраб қўйинг, - дея қўлида бир ҳовуч иссиқ ош билан отининг бошини буриб бир зумда кўздан ғойиб бўларди.

Уни қатл этишгач, халифа бобо, энди бу юртдан кетсак ҳам бўлади, деб бор мол-дунёсини ташлаб, кундошим ва мени олиб, учта отда Тожикистон томонларга кетдик”.

Ҳозирда ҳам халқимиз, айниқса, кекса авлод вакиллари орасида Ҳайитбек Қўрбоши ҳақида, юқорида келтирилгани каби қўллаб қи-воятлар мавжуд. Архив материалларидан фойдаланган ҳолда уларни тўплаш, илмий жиҳатдан ўрганиш зарур. Зеро, келажак сари оммамизга ҳар бир кун бизни тарихдан, тарихий воқеалар гувоҳларидан шунчалик узоқлаштираверади.

**Ҳурият ТўРАҚУЛОВА,**  
**ТерДУ тарих факультети,**  
**сиртки бўлими 3-босқич талабаси.**

### Huquqshunos maslahati

## Talaba ishlasa

**u bilan maktablarda o'rindosh emas, asosiy xodim sifatida mehnat shartnomasi tuziladi**

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 121-moddasiga binoan ish beruvchi korxonada besh kundan ortiq ishlagan barcha xodimlarga mehnat daftarchasini tutishi shart, o'rindoshlik asosida ishlovchilar bundan mustasno deb ko'rsatilgan. Shuningdek, Mehnat daftarchalarini yuritish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga (ro'yxat № 402, 29.01.1998-y.)ga muvofiq mehnat daftarchasi xodim ish haqi oladigan tashkilotning xodimlar to'limida yoki shunga mas'ul etilgan shaxsda saqlanadi. O'rindoshlik asosida ishlayotganlarniki esa asosiy ish joylarida saqlanadi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalariga esa OTMda xodim emas, shuning uchun u bilan OTM

o'rtasida mehnat shartnomasi emas, balki ta'lim berish shartnomasi tuziladi va shartnomada u talaba sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi "Oliy ta'lim to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami №1222, 22.02.2003-y.)ning 50-bandiga muvofiq kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar o'qishdan bo'sh vaqtlarida oliy o'quv yurti va boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi tuzgan holda ishlashlari mumkinligi belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 275-son qarori bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida"gi nizomning 8-bandiga ko'ra, oliy ta'lim muassasasining kunduzgi, kechki, sirtqi ta'lim shakllarining

pedagogika yo'nalishlarida o'qiyotgan shaxslar 3-kursdan boshlab o'qishiga xalaqit bermagan holda pedagoglik ishini amalga oshirish uchun umumta'lim muassasalarida asosiy ish joyi sifatida ishga qabul qilinishi mumkin va ularga o'rta maxsus, kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan tegishli lavozimdagi xodimning bazaviy tarif stavkasi singari bazaviy tarif stavkasi belgilanadi.

"Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplekslash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizomning 15-bandida oliy ta'lim muassasalarining pedagogik yo'nalish bo'yicha bitiruvchi bosqich talabalariga tarifikatsiya asosida dars soatlarini berish mumkinligi qayd etilgan. Shunday ekan, talaba boshqa ish joyiga ega bo'lmasa, uni asosiy xodim sifatida ishga olish kerak.

**Anvar YUNUSOV,**  
**tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i.**

## Махсус марказ иш бошлади

**БМТ ҳисоботиغا кўра, дунё бўйлаб қарийб 300 миллион киши гиёҳвандлик воситаларини суиистеъмол қилади, қурбонлар сони эса бир йилда 600 минг кишидан ошмоқда.**

Мазкур муаммолар қўллаб-мамлakatлар қатори Ўзбекистонни ҳам ташвишга қилувчи моқда. Тахлилларга кўра, сўнгги 5 йилда Ўзбекистонда наркoжoнoятлар сoни қарийб 2 бараварга, нoқoнуний мyoмoладан oлинган наркoтиклар мyсoдaраси 8,5 бараварга oшган бўлса, синтетик гиёҳвандлик воситалари мyсoдaраси 80 бараварга кўпайган.

Бу каби кўрсаткичлар гиёҳвандлик муаммосининг нафақат кенгайиб бoраётгани, балки турли ижтимоий қатлам, жумладан, ёшлар ва хотин-қизлар орасига ҳам кириб бoра-

ётганини кўрсатмоқда. Бу муаммога қарши курашишда фақат ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар эмас, балки бутун жамяят – оила, таълим муассасалари, OAB ва фуқаролик жамяяти институтлари бирлашган ҳолда ҳаракат қилиши зарур.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Наркотикларни назорат қилиш миллий марказидан маълум қилишларича, аҳолига наркология хизмати имкониятларини кенгайтириш мақсадида мурожаат конфиденциаллиги қафолатланган Call-марказ фаолияти йўлга қўйил-

ди. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги Республика иxtисoслaштирилган руҳий салoмaтлик илмий-амалий тиббиётий марказида жорий этилган Call-марказ рақами: +99855 515-45-65.

Марказ узлуксиз равишда – 7/24 режимида фаолият юритади.

Гиёҳвандлик билан боғлиқ муаммоси мавжуд шахслар ва уларнинг яқинлари республиканинг исталган нуктасидан наркология муассасасига катта намасдан, ўзи ҳақидаги шахсий маълумотларни сир сақлаган ҳолда конфиденциал наркологик маслаҳат олиш имкони мавжуд. Бу ерда етакчи мутахассислар гуруҳи мурожаат қилувчиларга ёрдам беришга доим тайёр.

**ЎЗА МУХБИРИ.**



*Kelajak tadbirkorlariga yo'l ochildi*

## O'QUV KURSLARI FAOL ISH BOSHLAGI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi, ayniqsa, yoshlar bandligini ta'minlash hamda ularning iqtisodiy faolligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu maqsadda respublika miqyosida bir qator innovatsion dasturlar, grant loyihalar va malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yilmoqda. Yaqinda boshlangan "Kelajak tadbirkorlari" loyihasi doirasida tashkil etilgan o'quv kurslari esa aynan shu yo'nalishdagi muhim qadam sifatida alohida e'tiborga loyiq.

"Kelajak tadbirkorlari" dasturi yoshlarni zamonaviy biznes yuritish asoslariga o'rgatish, ularning g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Kurslar davomida ishtirokchilar biznes reja tuzish, marketing strategiyasi ishlab chiqish, moliyaviy savodxonlik, raqamli texnologiyalar, soliq tizimi, mijozlar bilan ishlash kabi muhim mavzular bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallaydilar.

O'quv mashg'ulotlari yetuk mutaxassislar, biznes trenerlar va

soha amaliyotchilari tomonidan olib borilmoqda. Har bir modul interaktiv darslar, seminarlar, jamoaviy muhokamalar va individual loyihalar orqali tashkil etilgan bo'lib, bu ishtirokchilarga o'z fikrini erkin bayon qilish, muammoga yangicha yondashish va mustaqil qaror qabul qilish malakalarini shakllantirish imkonini bermoqda. Kurslarda ishtirok etayotgan yoshlarning aksariyati o'zining kelajakdagi biznes loyihasini ishlab chiqish ustida ish olib bormoqda. Dastur

doirasida eng yaxshi loyihalar moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi rejalashtirilgan. Bu esa nafaqat nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga, balki real biznesni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'quv kurslari yakunida ishtirokchilarga sertifikatlar topshirilishi, muvaffaqiyatli loyihalar esa tadbirkorlik inkubatorlari orqali rivojlantirilishi ko'zda tutilgan. Bu esa yoshlarning ishga joylashish, mustaqil faoliyat boshlash, hatto eksportga yo'naltirilgan kichik korxonalarni tashkil etishga turkib bo'lmoqda.

Mazkur dastur doirasida mahalliy hokimiyatlar, banklar, savdo-sanoat palatalari hamda xorijiy tashkilotlar bilan ham hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ayrim hududlarda xorijiy investorlar va donor tashkilotlar bilan birgalikda maxsus seminar va treninglar

o'tkazilmoqda. Bu esa ishtirokchilarga nafaqat mahalliy, balki xalqaro tajriba bilan tanishish, o'z biznesini zamon talablariga mos ravishda yo'lga qo'yish imkoniyatini yaratmoqda.

"Kelajak tadbirkorlari" o'quv kurslari nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi, balki iqtisodiy taraqqiyotda faol ishtirok etuvchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, zamonaviy fikrlaydigan yoshlar avlodini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadbirkorlik – bu faqat daromad manbai emas, balki jamiyatda ijobiy o'zgarishlar qilish vositasidir. Ushbu tashabbus orqali yoshlarning orzulari real maqsadga, ularning g'oyalari esa faol biznesga aylanishi yo'lida muhim eshiklar ochilmoqda.

**SH.XIDIROV, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Surxondaryo viloyati hududiy filiali dotsenti.**

**B.MUHAMMADJONOV, hududiy filial bosh mutaxassisi.**

**Tong nurlari hali ufqdan ko'rinmasidan, bir inson allaqachon uyg'olib, qalbida mas'uliyat, yuragida muhabbat, ko'zlarida esa ertangi avlodga bo'lgan ishonch bilan yangi kunni qarshi oladi. Bu inson – muallimdir. Uning har bir kuni – oddiy emas, balki mashaqqat, sabr, fidoyilik va ruhiy quvvat bilan to'lgan hayot sahnasidir.**

*Muallimning bir kuni*

## Sabr, mehr va fidoyilik ramzi

Muallimning tonggi tayyorligi, odatda, bir piyola choy ustida dars rejimini ko'zdan kechirish, darsliklardagi mavzularni real hayotda moslashtirib, bolalarning yoshi, qiziqishi, bilim darajasiga qarab yondashuvlar ishlab chiqish bilan boshlanadi. U darslarni yuragidan o'tkazadi. Chunki u biladi – so'z, tushuncha, izoh o'quvchi ongida iz qoldiradi. Har bir o'quvchi – alohida dunyo va u alohida e'tibor talab qiladi. Bu e'tibor, bu mehr esa faqat fidoyilik bilan yo'g'rilgan yuraklardan chiqadi.

Muallim sinfga kirgan zahoti ko'zlar unga tikiladi. Bu ko'zlarda ishonch bor, savol bor, mehr bor. U esa bu ishonchni charchoq yoki shaxsiy muammolar bilan emas, bilim va mehr bilan qoplaydi. O'zining shaxsiy og'riqlarini, yurakdagi g'ammi dars eshigidan tashqarida qoldirib, bolalarga tabassum ulashadi. Chunki u biladi – har bir bola shodlik va rag'batga munosib. Kun davomida u dars o'tadi, savollarga javob beradi, muammosi bor o'quvchiga alohida yondashadi, ba'zida darsdan keyin qolib, ota-onalar bilan suhbatlashadi. Ko'chada bolani ko'rsa, unga mehr bilan qaraydi. Shunchaki o'qituvchi emas, tarbiyachi hamdir u. Har bir so'zida odob, har bir nigohida diqqat, har bir harakatida namunaviylik mujassam.

Muallim hayoti – bu iztirobli daqiqalar, kechikkan tushliklar, tungi dars tayyorlashlar bilan to'lgan. Ammo u hech qachon shikoyat qilmaydi. U yashirincha yig'laydi, lekin darsga kulib kiradi. Unga hech kim medal taqmaydi, balki qadrini faqat vaqt o'tayotganida, ulg'aygan o'quvchilar muvaffaqiyat bilan qaytib kelganda anglashadi. Uning yuragidagi eng katta mukofot – shogirdlarining yutug'i.

Oliyaviy hayoti ham oson emas: o'z farzandlari, ro'zg'or tashvishlari, jamiyatdagi o'ri. Ammo u bularning barini taroziga solib, muallimlik burchini ustun ko'radi. Chunki bu nafaqat kasb, balki iymon, ma'naviy sharaf, qalb



amridir. U uyiga kech qaytadi, lekin bargaan ishidan charchamaydi. Sababi, ish emas, bu – hayot tarzi, bu uning borlig'idir.

Muallim – o'tmish bilan kelajak o'rtasidagi ko'pri. U bugun o'z yelkasida jamiyat ertangi kunini ko'tarib turadi. Har bir so'zi, aytgan gapi, tanitgan harfi tarixda iz qoldiradi. Uning yuragi har bir o'quvchi yuragida yashab qoladi. Uning sochlariga kirgan og' to'lar dars va maslahatdan qolgan sabr belgisi. Har bir yili, har bir o'quv yili – uning mehnat solnomasi. Bayramlarda guldasta olish muallim uchun quvonch. Lekin eng katta bayram – shogirdining hayotda topgani, odobli, vatanparvar, ilmi inson bo'lib voyaga yetganidir. Ana shu daqiqalarda muallim yuragida eng katta faxr, eng chuqur mamnuniyat uyg'onadi. Chunki bu natijalar – uning fidoyiligidan, sadoqatidan, yuragini bag'ishlagan mehnatidan darak beradi.

Agar siz jamiyatning eng buyuk, eng fidoyi insonini ko'rmoqchi bo'lsangiz – u bir kun muallim yonida bo'ladi. U qanday yuradi, qanday sabr qiladi, qanday mehr beradi. Ana shunda siz muallimning bir kuni – butun umrga tatigulik haqiqat ekanini anglaysiz. Zero, muallimning yuragida Vatan, qalbida kelajak. Ko'zlarida esa umid paroladi.

**Farangiz NORBOYEVA, 36-umumiyy o'rta ta'lim maktabining o'qituvchisi.**

### Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari

**O'zbek mumtoz adabiyotiga o'zining tazkiras, tarjima asarlari, g'azallari, dostonlari bilan kirib kelgan va chuqur iz qoldirgan ijodkor Ahmad Ali Muhammad o'g'li Tabibiyydir. U Xiva madrasalaridan birida o'qigan. Otasidan va zamonasining mashhur tabibi Yaxshimurodbekdan tabiblikni o'rgangan, Muhammad Rahimxon II Feruz saroyida tabiblik qilgan. Ko'rinib turibdiki. Tabibiy ham ijod bilan, ham tabiblik bilan shug'ullangan. Ustozlari Munis, Ogahiy, Komil kabi o'ziga xos shoir, dostonnavis, tarjimon, tazkiranavis bo'lib tanildi.**

## AHMAD TABIBIY IJODIYOTI

Ahmad Tabibiyy shaxsiyati, ijodiy merosi haqida dastlab Muhammad Yusuf Bayoniy, rus turkshunos A.N.Samoylovich kabi olimlar o'rganganlar. Ular bilan bir paytda shoirning zamondoshi Hasanmurod qori Muhammad Laffasiy ham asarlarida ma'lumot berilgan. Uning otasi asli afg'onistonlik, keyinchalik Xorazmga kelib turg'un bo'lib qolgan.

Ali Muhammad Xivaning mashhur tabiblaridan edi. U kichik do'koncha ochib, attorlik bilan ham shug'ullangan. Ali Muhammad o'g'lining o'qishiga katta ahamiyat berdi. Fors, arab tillarini chuqur o'rganishiga rahnamolik qildi, tabiblikni o'rgatdi. Shuning uchun ham Ahmad o'ziga "Tabibiy" taxallusini tanladi. Uning she'riyatdagi shuhrati keng yoyilgan. Natijada Muhammad Rahimxon Feruz uni saroyga taklif qildi. Tabibiyy saroyda ishlay boshlaydi. Ham tabiblik qiladi, ham ijod bilan shug'ullanadi.

Tabibiyy saroyda ishlar ekan, Avaz O'tar kabi qobilaytli shoirilarga ustozlik qildi. Bu haqda Laffasiy tazkirasida "Aksari vaqtlar Avaz O'tar bilan ulfatlig' qilib, shaxmat o'yinig'a mashg'ulotlig' qilib, o'zlariga taskinlig' bilan she'r mashqini qilib turadur erdilar. Hamma vaqtlar tanbur chertib, o'z shikasta xavotirig'a tasalli berib turadur erdi" deb aytib o'tgan. Avaz O'tar o'g'li ham Tabibiyni ustoz sifatida hurmat qildi, she'riyatda uningdek bo'lishga intilardi. Tabibiyy ijodi haqida so'z

### Taassurot

## «Baliq ovi»



Menga Qamchibek Kenjaning "Baliq ovi" hikoyasi yoqdi, undan olgan taassurotlarim bir olam. Ushbu asarda bir oila va unda bo'lgan voqealar meni lol qoldirdi. Otasining o'z o'g'illariga bo'lgan muomalasi hatto jahlimni ham chiqardi. Albatta, o'z farzandlarini yaxshi ko'radi. Lekin o'zga bir odamning iltimosi bilan ularni qish faslida bo'lsa ham baliq oviga yuborishi, men uchun shafqatsiz kishining ishidek tuyuldi.

Asardagi g'amgin voqealar meni o'z domiga tortdi. To'g'risini aytсам, bu asarni o'qib undagi qahramonlardan biri Komilga

juda achindim. Asar so'ngida, hattoki ko'zlarim yoshlandi. Hikoya menga bir umrlik taassurot qoldirdi, desam yangilishmayman.

Voqealar oxiri xunuk yakunlanishiga "baliqxo'r kishi" aybdor. Komil juda yaxshi bola va ajoyib aka edi. Esiz, boshqa bir insonning qornini to'ydirish, nafs uchun bir begunoh inson nobud bo'ldi. Endi sizga voqealarni qisqacha aytсам.

Komil juda yaxshi baliq ovlardi. Kamron esa akasining baliq ovlashiga ishqiboz edi. Ayniqsa, akasi ilonni ko'rsa boshi uzra aylantirib-aylantirib otishiga

rivojlantirgan deyiladi. 1908 yili u Fuzuliyning falsafiy-didaktik dostoni "Haft jom" ("Yetti jom")ni fors tilidan o'zbekchaga tarjima qildi. Bundan tashqari, Fuzuliyning ushbu dostoni ta'sirida "Yetti ravza" ("Yetti bog'") nomli xloqiya-talimiy doston yaratdi. Ushbu doston 7 ravza va 14 hikoyadan tashkil topgan. Hikoyalari Muslihiddin Sa'diy "Guliston"idagi hikoyalarni eslatadi. Navoiy,

Sa'diy, Jomiy, Zebunniso, Munis, Ogahiy, Mirzo G'olib va boshqalarning g'azallariga 518 ta muxammas bog'lagan.

Xorazm shoirlari haqida "Majmuat ush-shuaro'i payravi Feruz Shohiy", "Majmuai muxammasoti ash-shuaro'i Feruz Shohiy" (1909) tazkiralarni tuzgan. Ikkinchi majmuasi, asosan, 33 shoir muxammaslaridan tashkil topgan. Unda dastavval Ogahiy g'azallariga, so'ng Feruz she'rlariga bog'langan muxammaslar, keyin esa Feruzning "Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim" g'azaliga taxmis, muxammas va musaddaslar keltirilgan. Xotima qismida esa shu to'plamga kirgan Umidiy, Doiy va Xayoliyning vafoti haqida xabar, Bayoniyning "Majmuat ush-shuaro'i payravi Feruz Shohiy" ga yozgan taqrizi berilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti, uning namoyandalari ijodi haqida yaratilgan deyarli barcha ilmiy adabiyotlarda Ahmad Tabibiyy ijodiga oid fikr va mulohazalar uchraydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Tabibiyy qisqa hayoti davomida boy meros qoldirdi. Shoir turli janrlarga oid lirik asarlar yaratgan. Zullisonayn ijodkor sifatida ham sermahsul ijod qilgan. Tabiblikada ham yaxshi nom qoldirgan.

**Munira ASADULLAYEVA, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi.**

qiziqardi. Ularning dadasi xo'jalik mudiri edi. Uning baliq yeyishni yaxshi ko'radigan xo'jayini o'zi bilan birga turli xil odamlar oriq, semiz, novcha, mo'ylovli, mo'ylovsiz kishilar bilan har safar tashrif buyurar, baliq yeb ketishardi. Shuning uchun ham Kamron, akasi Komil, opasi unga "baliqxo'r kishi" deb laqab qo'yishgandi. Baliqxo'r kishi har safar kelganida Kamronning asabiga tegar, uni Qoravoy deb chaqirar edi.

O'sha mudhish voqeaga ham yetib keldik. Qish fasli edi. Baliqxo'r kishi va boshqa mehmonlar kelishdi. O'yisining jahli chiqdi. Baliqxo'r kishi ularning otasiga shu Komilbek ajoyib bolada, hattoki, qishda ham baliq ovlay oladi, deb rosa maqtadi va baliq oviga jo'natadi. Xo'jayinning maqsadi baliq yeyish edi. O'sha kuni Komil muzday suvga tushib, baliq tutishga majbur bo'ladi. Kechqurun Komilning mazasi qochadi, isitmalaydi. Shifokor keldi, faqat ozroq shamollabdi, xolos deyd. Afsus, ming afsuslar bo'lsinki, ertasiga Komil bu dunyodan ko'z yumadi. Iltimos, aziz ota-onalar, hech qachon oilangizga bunday kunni aslo ravo ko'rman.

Bu asarni o'qishga undagan adabiyot fani o'qituvchimga katta rahmat!

**Ziynatbonu QAHRAMONOVA.**

## Ona qalbi

Termizda o'qir edim. Haftada faqat shanba va yakshanba kunlari uyda bo'lar edim – go'yo yuragim faqat shu ikki kunda tin olardi. Oyim bilan telefonida gaplashganimda ovozi ma'yusdek tuyulgan edi, sababini uyga kelib, bildim.

Oyimning kayfiyati yo'q, yuzlari qizargan, ko'zlarida shishlar seziladi. Bildirmaslikka harakat qiladi, lekin uddasidan chiqolmaydi. Va nihoyat, singillarim xonadan chiqib, oyim bilan yolg'iz qoldik. Xona tinch bo'lib qoldi. Sekin gap boshladim: –Nima bo'lganini aytasizmi, oyijon, mendan nimani yashiryapsiz?

– Hech nima, qizim. – Yo'q, bir nima bor, oyijon. Menga aytin, sal yengil tortasiz. So'ng biroz o'ylab turdida, gap boshladi.

– Men nima yomonlik qildim ularga? Ayt, o'zing, –dedi ko'zlari yoshga to'lib. Keyin dardini

menga to'ka boshladi. Oyim bo'lgan voqeani aytar ekan, nima bo'lganini ayon bo'ladi. Ammamalar oyimga og'irroq gaplar aytgan ekan, rosa xafa bo'lganini his qilib, yuragim achishib ketdi. Oyim yig'lamsirab gapiradi-yu, ko'zidan bir tomchi yosh chiqmaydi, ammo to'lib turganini sezaman.

–Men nima qildim? – dedi oxirida yana takrorlab, o'zini yig'idan arang tiyib turar edi. Oyimga taskin berar ekanman, ko'zimdan beixtiyor yosh oqib tushdi. Onam endi chiday olmasi, ko'zidan shu qadar ko'p yosh to'kildi-ki.

–Sen nega yig'laysan– deb, bag'riga bosdi.

Oh, onajon shuncha yomon gaplarga, tahqirlanishlarga chidagan qalbingiz, mening bir tomchi yoshim sabab parcha-parcha bo'ldi-ya...

**Jasmina MAXMATVALIYEVA.**

Farzandlarimiz kelaajimiz poydevoridir. Uzbek xalqining bolajon xalq ekanligi barчаси учун тан олинган ҳақиқат. Бу бугун ёки кеча шаклланган аънаъа эмас, балки асрлар давомида бизга берок бўлиб келаятган қадриятдир. Бу қадриятларнинг таъамирида болани эъзозлаш, унга, энг аввало, инсон сифатида муомалада бўлиш, унинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳурмат қилиш масалалари ётади. Эндилеҳда ҳалқро микёсда эътироф этилаятган бу ҳуқуқ нормалари ас-лида юртимизда қадим-қадимдан шаклланган.

Шу боис ҳам миллий қадриятларимизга таъниб ёзилган Бош қомусимизда бу масалага алоҳида эътибор берилган. Жумладан, воёга етмаганларнинг ҳуқуқлари давлат ҳимоясида эканлиги (77-модда), оналик, оталик ва болалик давлат томонидан муҳофаза қилиниши (78-модда) қафолатланган. Бундан ташқари, давлатимиз мустақилликка эришганидан сўнг тартифакцияча қилинган дастлабки ҳалқро ҳуқуқий ҳужжатлардан бири ҳам Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция

*Янги Ўзбекистон учун*

## Бола ҳуқуқларини таъминлаш — бош мезон

бўлган эди. 1992 йил 9 декабрдаги ушбу конвенция орқали Ўзбекистон дунёнинг 193 давлати қаторида бола ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлашга доир қатор мажбуриятларни ўз зиммасига олди.

Истиқлол йилларида мамлакатимизда инсон ҳуқуқлари бўйича умумэтироф этилган таъминлаш устуворлигини таъминлаш, бола ҳуқуқларига оид миллий қонунчиликни такомиллаштириш, ҳалқро шартномалар бажарилишини ҳуқуқий тартибга солиш бўйича 100 дан зиёд қонун, фармон, қарор ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Энг муҳими, Ўзбекистонда бола ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоялаш бўйича комплекс ҳуқуқий асослар яратилди. Айниқса, 2008 йил 7 январда қабул қилинган "Бола ҳуқуқларининг қафолатлари тўғрисида"ги қонун бу

борада тарихий ҳужжат бўлди.

Бир қарашда соҳага оид муносабатларнинг барчаси тўлақонли тартибга солингандек, ҳаммаси ўз ўрнидадек туюлади. Аммо инсон ҳуқуқлари, айниқса, бола ҳуқуқлари соҳаси шундай тизимки, давр ва вақт ўтган сари янги-янги ўзгаришлар, қўшимчалар киритилмас, ҳуқуқни рўёбга қиқаришда муаммолар юзага келаверади. Бу эса болаларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда ularнинг барқамол авлод бўлиб етишишини таъминлаш борасидаги фаолиятнинг институционал ва ҳуқуқий асосларини тубдан такомиллаштириш зарурати тобора ортит бораётганини кўрсатади.

Шу боисдан Президентимиз томонидан имзоланган "Бола ҳуқуқлари қафолатларини янада қучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар

тўғрисида"ги қарор Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция талабларини ҳар томонлама ҳаётга татбиқ этиш, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларида назарда тутилган болаларнинг ҳуқуқларини амалда қафолатлаш, ularнинг ҳимосий, интеллектуал, руҳий ва маънавий етук авлод бўлиб етишишини таъминлаш йўлида ташланган катта қадам бўлди.

Дарҳақиқат, инсон ҳуқуқлари, мамлакат келажакнинг асоси ҳисобланган бола ҳуқуқлари масаласи битта ёки иккита муассаса фаолияти сый-ҳаракати билангина таъминланиб қолмайди. Мамлакат эртасининг бугунидан яхшироқ бўлиши учун барча бирдек ҳаракат қилиши, инсон ҳуқуқларини таъминлаш, аввало, бола ҳуқуқларини таъминлашдан бошла-нишини тўлиқ англамоғимиз лозим. Шундагина қудратли ва буюк Ўзбекистонни барпо этишга муносиб ҳисса қўшган бўламиз.

**Нилуфар ЭШБОЕВА, Шўрчи туманидаги 54-умумий ўрта таълим мактабининг 1-тоифали бошланғич синф ўқитувчиси.**

*Китоблар жонсиз, аммо содиқ дўстлардир.*  
**В.Гюро**

Shaffof mahallasida yashovchi Mamatov Botir Jumanazarovichga Muzrabot tumani «Davtexnazorat» inspeksiyasi tomonidan 2017-yil 13-noyabrda berilgan TMG-048743 raqamli traktorchi-mashinist guvohnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

**x x x**  
Xamraqulov Bekzod Xoliyar o'g'liga 2018-yil 6-dekabrda berilgan «B, C» toifali DL 0000 №713893 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

**x x x**  
Pardayev Yu'raqulga 1977-yil 6-dekabrda berilgan AAT № 520970 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**



O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga

# Yangi o'quv yiliga yangiliklar bilan



Maktab – muqaddas dargoh. Bag'ri – dengiz. Ostonasi – oltin, zar. Hech bir zot yo'qki, maktab ta'limini olmagan bo'lsa. Jadid bobomiz Abdulla Avloniy maktab haqida shunday yozadi:

*Maktabdadir ilm-u kamol, Maktabdadir husn-u hilol, Maktabdadir milliy xayol, G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!*

Avaz O'tar esa mana bunday ta'rif etadi:

*Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab, O'qusin yoshlarimiz, ko'nglini shod etgusi maktab.*

Inson umrining eng beg'ubor fasli maktab quchog'ida o'tadi. Maktab insonni tarbiyalaydi, shakllantiradi, ulug' maqsad sari yo'naltiradi. Bunda esa o'qituvchilarning xizmati beqiyos. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutigida shunday deydi: "Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir". Ha, bugun maktab taqdiri, o'quvchilar taqdiri o'qituvchilar qo'lida. Bu esa o'z navbatida, ustozlardan bilim, kuch, matonat va kasbiga sadoqatni talab etadi.

Qaysiki muassasada rahbar oqil, adolatlil bo'lsa, o'sha yerda o'sish va rivojlanish bo'ladi. Shaffof, sog'lom muhit yutuqlar

ko'ngli yorishib ketardi.

Shunchalik ko'p yangiliklar bo'lganidan qaysi birini yozishni bilolmayapman. Ko'chadan o'tayotgan kishilar maktabimizga havas bilan qarashyapti, farzandlari shu yerda tahsil olayotganidan faxrlanishyapti. "Universitetga o'xshaydi-ya" deyishadi. Yangilikning eng zo'rini aytсам, siz ham kelishga, ko'rishga qiziqib qolasiz. Maktabimizning yangi binosiga kiraverishda shunday go'zal favvora qad rostlaganki (bu ham T.O'tayevning homiyligi va yaratuvchanligi bilan), ko'rib ko'zingiz quvnaydi, bahri dilingiz yayraydi. Ayniqsa, darsdan charchab chiqib, favvora yoniga borib dam olsangiz, beixtiyor tilingizdan "E baraka top. Otangga rahmat!" degan so'z otilib chiqadi. Ha, bu so'zlar buyuk qalb egasi, go'zallik yaratuvchisi, kreativ inson – Tolib



*Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada, Bu nihol nomini yaxshilik ata. Niholing yoniga bir gul ekib qo'y, U gulning ismini go'zallik deb qo'y.*

*Gul-u niholingga baxsh etib hayot, Suv ber va bu suvga mehr deb qo'y ot. Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st, Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st.*

**Muyassar XOLMAMATOVA,**  
**7-maktab o'qituvchisi, xalq ta'limi a'lochisi.**

## Shifokor maslahati

# Yuragingizga quloq tuting!

Inson tanasida bir a'zo bor – u hech to'xtovsiz uradi, tinimsiz harakat qiladi. U biz uxlaganimizda ham, o'ylaganimizda ham, ish bilan band bo'lganimizda ham o'z ishini sadoqat bilan bajaradi. Bu – yurak. Har bir urishi bilan hayotimizga hayot baxsh etuvchi bu a'zo, ayni paytda eng mo'rt va eng ko'p e'tibor talab etuvchi a'zodir. Ammo, hayotning shiddati, zamonaviy turmush tarzi, noto'g'ri odatlar va ruhiy bosimlar tufayli yurak-qon tomir kasalliklari bugungi kunda insoniyat salomatligiga eng katta tahdid bo'lib qolmoqda. Biroq bu dushmanni vaqtida taniy olsak, unga qarshi kurashish – o'z go'limizda.

Yurak-qon tomir kasalliklari – bu yurakning o'zi yoki qon tomirlari bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga oluvchi keng tushunchadir. Bular orasida:

- ishemik yurak kasalligi (yurak mushaklariga yetarliq qon yetkazadi; insult (miya qon aylanishining keskin buzilishi); gipertoniya (doimiy baland qon bosimi); yurak yetishmovchiligi; ateroskleroz (qon tomirlari devorlarida yog'li moddalarning to'planishi) kabi holatlar mavjud. Ushbu kasalliklar asta-sekin, sezilmaydigan tarzda rivojlanib boradi va ko'pincha inson o'zini yaxshi his qilayotgan paytda ham yurak jimjit azob chekayotgan bo'ladi.
- Yurak-qon tomir kasalliklari ko'plab omillar ta'sirida paydo bo'ladi. Asosiy sabablar quyidagilardir:
  - noto'g'ri ovqatlanish – ortiqcha yog', tuz va shakar yurakka zarar yetkazadi; jismoniy faollikning yetishmasligi – yurak mashq qilmasa, zaiflashadi; chekish va alkogol – qon tomirlarni toraytiradi va yurakni zo'rqiqtiradi; surunkali stress – yurakka bevosita ta'sir qiluvchi ruhiy bosim; qandli diabet, semizlik va merosiy omillar – xavfni yanada oshiradi.
  - Yurak muammolari ko'pincha quyidagi belgilar orqali seziladi: ko'krak sohasida siqilish, bosish yoki og'ir; nafas qisishi, yurakning "gurs-gurs" urishi; holsizlik, tez charchash; bosh aylanishi, hushdan ketish holatlari; qo'l, oyoqlarda uvishish yoki shish. Bu alomatlar oddiy charchoq emas, balki yurakning bizga yuborayotgan

Surxonдарё вилоятидаги мафтункор шаршараси билан оламга машхур Сангардак кишлоғида Австриянинг "INPUT Projektentwicklungs-GmbH" компанияси ишлаб чиққан лойиҳа асосида яна бир замонавий туристик маскан қурилиши бошланди.

## Сангардакда янги лойиҳа қурилиши бошланди

Гўзал тоғлар кўйидаги 16 гектар майдонда қад ростлайдиган лойиҳа ҳудуднинг рельефи, табиий ландшафти ва тоғли-рекреацион имкониятларини эътиборга олган ҳолда ишлаб чиқилган. У функциялар ва экологик жиҳатдан мақбул ечимларни ўз ичига олади.

Президентимизнинг 2024 йил 16 декабрдаги "Сурхондарё вилоятининг тоғли-рекреацион ҳудудларида туризм инфратузилмасини яхшилаш ҳамда замонавий хизмат кўрсатиш ва туризм объектларини барпо этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарорига мувофиқ 615 гектар майдонда бунёд этилаётган "Сангардак" туристик маркази қурилиши учун 913 миллиард сўмдан

Томорқада ер ағдараётган Алман чол бир пас тин олиш учун тўхтади. Чекада турган туңука чойнак томон боратуриб бу ёққа келаётган йигитга кўзи тушди. У икки ҳовли нарида турадиган кўшниси Арслон шилмик эди.

–Ҳа, боёй, кампир замма-ладима? –У ҳар доимғидай теда жоғоғлик қилишни бошлади. Кун туш бўлдиам ишляспсиз. Хотиннинг зўри – эрининг шўри эканда. Нима дедингиз?

–Мен ҳали хеч нарса деганим йўқ, – жавоб қилди чол. – Ўзингдан ўзинг қишдан қолган қарғадай қағилляпсан. Минг қилсаям уруғинг қарғада. Ундан кўра кел, чой ич.

Арслон узатилган пиёладаги яхна чойни мириқиб симирди. Икковлон у ёқ-бу ёқдан гурунглашган бўлди.

–Энди ишни тўхтатинг, бо-бой, – яна қитмирликни давом эттирди кўшниси. – Мана

## Департамент ҳаётидан

# Ўғирлик фош этилди

Бош прокуратура ҳузуридаги Департаментнинг Музработ тумани бўлими томонидан ўтказилган терговга қадар текшүрүвда "Gippokrat-Termiz" ху-сурий корхонаси раҳбари Мафтуна Ражабова сүв насо-

сини умумий фойдаланишда-ги газ тармоғига ўзбошимча-лик билан тўридан-тўғри ула-ган. Оқибатда у шу йўл билан 160,1 миллион сўмлик табиий газдан ноқонуний фойдалан-ганлиги аниқланган.

## Жавондаги жаҳоҳир

# Фарзандларимизни китоб билан дўстлаштирайлик

Президентимиз Шавкат Мирзиёев халқ таълими тизи-мини тубдан ислоҳ қилиш, уни замон талабларига муво-фиклаштириш зарурлигини алоҳида таъкидлаган эди. Ай-ниқса, устоз ва мураббийларнинг кадр-қимматини, об-рўйини кўтариб, жамоат ишларидан озод этгани барча тизим ходимларини қувонтирди. Ўқитувчиларнинг ортиқча қорғозбозликлардан қутилиши ҳам дарс самарадорлигини ошишига ижобий таъсир кўрсатди.

Тахрибадан маълумки, ри-вожланган давлатларда ҳам таълим соҳасига алоҳида аҳамият қаратилиб, катта ютуқ-ларга эришилган. Хеч кимга сир эмас, кўп йиллар олдин барча вилоят ва туманларда кутубхоналар ўрнини видео-диск ва компьютерхоналар эгаллаган эди. Президентимиз томонидан имзоланган қатор ҳужжатлардан сўнг кутубхо-налар яна қайта тикланди. Бу қувонарли ҳол бўлди, чунки ўсиб келаётган ёш авлод тар-биясини, келажагини китобсиз тасаввур этиш қийин.

Ҳали ҳам эсимда, Музра-бот туманидаги 1-сонли мак-табда мактаб директорининг маънавият ва маърифий иш-лар бўйича ўринбосари бўлиб ишлаган пайтларимда мактаб ўқувчилари ўртасида китобхон-лик тадбирларини ўтказиш таклифи билан туман халқ таъ-лими бўлими Маънавият ва маърифий ишлар бўйича му-тахассиси олдига бордим. Мактабларда китобхонлик тад-бирлари, давра суҳбатларини ўтказиш ҳақидаги таклифим-га мутахассис кескин рад жа-вобини бериб, "Ҳозир ким ҳам китоб ўқийди, бундай тадбир кимга ҳам керак" деди. Мен халқ таълими бўлими бино-сидан чиқар эканман, наҳотки таълим соҳасида шундай ло-қайд, бошини қорғозбозликдан кўтармайдиганлар бор экан, таълимда қандай ўзгариш бўлади деган ҳаёлар ўтди. Галнинг очиги, ҳозирги пайт-да ҳам таълимда мана шундай амалда эмас, фақат қорғоз би-лан иш олиб борадиган, ой-лихжўр ходимларнинг борлиги ачинарли ҳолдир.

Орадан бир йил ўтди, ўқув йили ҳам тугади. Аммо ме-нинг китобхонлик тадбирлари-ни ўтказиш ҳақидаги иштиё-қим ҳеч сўнмас эди. Яхши умидлар билан туман хоким-лигига, "Нуроний" жамғарма-си туман бўлими Кенгаши-нинг раиси марҳум Нурилол Жўраевнинг ҳузурига бориб мақсадларимни айтдим. Оқсоқол билан ўзаро фикрла-шиб, маслаҳатлашиб, китоб-



хонлик тадбири режасини ҳам тузиб олдик. "Таклифнома" на-мунасини ҳам тайёрладик. Ниҳоят китобхонлик тадбири тумандаги собиқ агросаноат коллежи, ҳозирги 1-сонли мактаб фаоллар залида ўта-диган бўлди.

Тадбирга тумандаги маъ-рифатпарвар оқсоқоллар – марҳум Курбон Амиркулов, Одинакул Бозоров, Дўстқобил Қодиров, Иброҳим Мерганов-лар ҳамда мактабнинг фаол ўқитувчи ва ўқувчилари так-лиф этилган эди. Адабий маш-варатдан устозлар, ўқувчилар хурсанд бўлиб қайтишди. Чун-ки истеедодли ёшлар ўзла-рининг ижоди, ўқиган китобла-ри ҳақида сўзлаб беришди. Устозлар эса бундай тадбир-лар тез-тез бўлиб туриши иктидорли ёшларнинг ижоди-ни кимлардир эшитиб, улар-ни рағбатлантириб бориши кераклиги ҳақида ўз муноса-батларини билдиришди. Мен эса китобхонлик тадбирини ташкил этишдаги бир йиллик сарсонгарчиликдан сўнг шун-дай хулосага келдим: мадани-ят ва маърифий соҳага, таъ-лим тизимига, қолаверса, раҳ-барликка маънавиятли, мада-нийатли, иждоқор инсонлар ке-рак экан. Ўша 2013 йилдаги бу тадбирни ўтказиш халқ таъ-лимида ишлаб келаётган раҳ-бар ходимлар учун жуда қийин ва малолдек туюлган эди.

Инсоннинг ниятига ҳам кўп нарса боғлиқ экан. Тақдирнинг

Мазкур ҳолат юзасидан Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 169-моддаси (ўғрилик) билан жиноят иши кўзгатилиб, ҳуқуқбузарга тегишли жазо чораси қўлланди.

**А.КОРАХОНОВ,**  
**Департаментнинг Музра-бот тумани бўлими бош-лиғи.**

# «ЭРКАКЛАР ДАФТАРИ»

(Ҳажсия)

“Қандай дафтар? – сўради Арслон ажабланиб. – Нималар даяспсиз ўзингиздан ўзингиз. “Аёллар дафтари” бор, эшит-ганимиз. “Эркаклар дафтари” эмиш. Ол-а! Офтоб таъсир қил-маганимни ишқилиб?

–Э, ҳали хабабинг йўқма? – Чол унга бироз ачиниш билан қаради ва сўнгра афсусланиб бош чайқади. – Ўзимам шу бола кейинги пайтда замон-дан орқада қолдим деб ўйлардим. Рост эканда. Мен айтаётган дафтарга хотинини зириллатадиган асл эркаклар ёзилади. Ҳозир ўзинг кўрдин-га бобонгнинг довушини эшитканнан кампир зипилиб келди. Шунча вақтдан бери ҳамсоя бўлиб ҳали хотининг-

ни ақалли бир марта чертол-мабсана. Шошмай турсанг, хозир онкеб шу дафтарни кўрсатаман.

Алман чол тушмагур илдам юриб юлға бориб қайтди. Қўлида юлқагана ўқувчилар дафтари бор эди.

–Мони ўзинг кўрди, – дедя дин-чиси ўзим. Хўш, кейингилари Бердиёр бор, Нормурод бор. Хайла Холмурод ҳам тиркал-ган. Сен йўқсан. Яна қайтариб айтияни. Демак, шу маҳалгача хотинингни уриш уёқда турсин бир черталмагансан. Тўғрими? Яна менга айтган имлоқли га-бирганингга ўлайма. Афсус, афсус, Арслон деган от қуйиб кетганда. Муннан кейин ҳам шуйтиб ўтсанг керак. Ҳе...

Чол қурғур гапининг уёғини

айтмай қўя қолди. Айтмасаям айтгандан, урмаса ҳам урган-дан баттар қилган эди. Арслон ғазабдан тутоқиб кетди. Ран-ги оқариб, лаблари пир-пир учди. Уни кузатиб турган Ал-ман чол ҳозир арслондай наъра тортиб юборади деб ўйлагани-ди. Йўқ ундай бўлмади. Қўш-ни си хайр-маъзурни насия қил-ганча уйи томон ўқдай учиб кетди.

Орадан беш-ўн дақиқа ўтди ё ўтмади Арслоннинг ҳовлиси-дан аввал аёл кишининг дод-лагани, сўнгра яланг оёқ, яланг бош кўчага қочиб чиққан қораси кўринди.

–Бўлдима? – бақирарди қўшни хотинини изидан қувиб бораркан. –Кўриб қўлинг, бо-бой. Бизам асл эркаклардан бўламиз. Ёзинг рўйхатга!

Алман чол эса парвойи па-лак кампирни келтирган чойни ҳўриллатиб ичарди.

**М.ХОЛМИРЗАЕВ.**